KAMOL
RAHMONOV



# XX ASRDA YEVROSIYODA SIYOSIY JARAYONLAR: TARIXI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

o'quv qo'llanma






**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Kamol RAHMONOV**

# XX ASRDA YEVROSIYODA SIYOSIY JARAYONLAR: TARIXI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

## O‘QUV QO‘LLANMA

**70220301 - Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha) magistratura ta’lim yo‘nalishiga mo‘ljallangan**

Buxoro-2023

**КВК 63.3(5Ўзб)7 R-18**
**UO'S: 531.535.521.61**

O'quv qo'llanma 70220301 - Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) magistratura ta'lim yo'nalishi uchun "XX asrda Yevrosiyoda siyosiy jarayonlar: tarixi va zamonaviy tendensiyalar" tanlov fanini mavzularini o'rganishga amaliy yordam beradi. Mazkur o'quv qo'llanma 2 qismdan iborat bo'lishi rejalashtirilmoqda. Hukmingizga taqdim etilayotgan ushbu 1-qismda 1917-1953 yillar xronologik chegarada fikr-mulohazalar yuritiladi. Bunda Rossiyada oktyabr to'ntarishining tarixiy zamini, oktyabr to'ntarilishi va uning oqibatlari, fuqarolar urushi va qizil armiyaga qarshi qurolli harakatlar, totalitar tuzumning yangi iqtisodiy siyosat davri, Stalin diktaturasi: jamiyat va terror kabi mavzularni o'rganish nazarda tutiladi.

## TAQRIZCHILAR

**A. Pardayev -** Qarshi davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi dotsenti. tarix fanlari nomzodi.

**J. Hayitov-** Buxoro davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi mudiri, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

**Texnik muharrir:** Shoirbek Sunnatillayev

Mazkur o'quv qo'llanma Buxoro davlat universitetining 2023 yil 21 oktyabrdagi 556-sonli buyrug'i 1-ilovasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**Ⓢ ISBN 978-9910-742-88-0**
**Ⓢ Fan ziyosi - 2023**
**Ⓢ Duna poligraf xususiy korxonasi**

# KIRISH

XX asr dunyo mamlakatlarida keskin voqeliklar sodir bo'lganligi bilan tarixga qoldi. Mashhur adibimiz Abdulhamid Sulaymon Cho'lpon bundan 100 yil muqaddam XX asrni "aql-ziyraklik asri", zamonani "o'zgarish zamoni", o'sha davrdagi kunlarni "taqlid va ergashish kunlari", degandi. Buxoro Respublikasi hukumati o'z ishlarida ko'r-ko'rona "Markaz"ga (Moskva) taqlid qilishini keskin tanqid tig'i ostiga olgan "Qalandar" taxallusi bilan "Kichik hangoma" rukni ostida e'lon qilgan o'zining "Ergashish" nomli maqolasida[1].

Cho'lpon tomonidan aytilgan bashoratlar o'zini tasdig'ini topdi. XX asr - "aql-ziyraklik asri" sifatida fan va texnika misli ko'rilmagan darajada o'sib ketdi. Olamshumul kashfiyotlar tufayli fan jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchiga aylandi. Energiya, lazerlar, robotlar, texnika, texnologiya sohasidagi o'zgarishlar hatto odamning o'zini ham o'zgartirib yubordi. "O'zgarish zamoni" bo'lib kirgan mazkur asrda xalqlar boshiga kulfat keltirgan ikkita jahon urushi yuz berdi. "Sovuq urush" deb nomlangan tahlikali hayot insoniyat ruhiyatini zabt etdi.

XX asr davomida yer yuzining 6\1 qismini egallagan "sosializm" jamiyati- SSSR deb olgan jamiyatda mustabidlik, o'zboshimchalik, hech qanday milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tan olmaslik kabi illatlar qaror topib bordi. Yakka hukmron hisoblangan Kommunistik partiya "davrning vijdoni" deb e'lon qilindi, uning rahbariyatini ko'klarga ko'tarib maqtash, kommunistik jamiyatni mutlaqlashtirish, uni eng adolatli jamiyat deb hisoblash, kommunizm g'oyalariga sodiq bo'lgan yangi insonni shakllantirish, xullas, butun XX asr "sovet xalqi"ni shakllantirish degan mantiqsiz maqsad yo'lida kurash bilan o'tib ketdi.

Rossiyada 1917 yilgi oktyabr to'ntarishidan so'ng qaror topgan bolsheviklar hokimiyatining g'ayriinsoniy siyosati ziyolilar o'rtasida keskin noroziliklar keltirib chiqardi. Davlat to'ntarishining dastlabki yillaridayoq 75 mingdan ortiq atoqli adiblar, san'atkorlar, olimlar o'z vatanlarini tark etdilar. Mavjud tuzumni tanqid qilganlar, kommunistik partiya va sovet davlati rahbarlarining noinsoniy siyosatiga nisbatan qarshi fikr bildirganlar qatag'on qilindi. Ularning barchasiga bir xil "sosializmga

[1] Қаландар. Кичик хангома рукни. «Эргашиш» \\ Бухоро ахбори. 65-сон. 1922 йил 15 январь.

tuhmat qildi", "aksilinqilobchi", "yot unsur", "xalq dushmani" kabi ayblar qo'yildi.

Bunday noinsoniy jamiyat uzoq yashay olmasligi o'z isbotini topdi. XX asr 90-yillariga kelib, ulkan SSSR imperiyasi parchalanib ketdi, mustabid tuzum o'zidan achchiq tarixiy saboq qoldirdi. Insoniyat tahlika va o'zgarishlarga boy, "axborot xuruji" avjiga chiqqan XXI asrning dastlabki choragini ham bosib o'tdi. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" (Islom Karimov) degan tushunchadan kelib chiqib, o'tgan asr voqeliklariga nisbatan to'g'ri xulosalar chiqarish, saboq olish bugungi jamiyat taraqqiyotining ma'naviy-ruhiy vazifalarini bajarish omillaridan biridir.

Yuqoridan keltirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib, sobiq ittifoq yillarida yuz bergan tarixiy jarayonlarni zamonaviy tendensiyalar orqali o'quv fani sifatida o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ***70220301 –Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha)*** mutaxassisligiga "XX asrda Yevrosiyoda siyosiy jarayonlar: tarixi va zamonaviy tendensiyalar" deb nomlangan fan joriy qilingan. Uni o'qitishdan asosiy maqsad –bugungi kunda o'tgan tuzumning tarixiy achchiq tajribasi to'g'risida talabalarga umumiy tushuncha berish. Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, fanning vazifasi, eng avvalo, SSSR tashkil topgan davrdan hozirgi kunlargacha bo'lgan jarayonlar tahlili asosida fanning umumiy tavsifi, davrlashtirish va xronologiya, insoniyatning keyingi tarixiy rivojlanish bosqichida fan, texnika, madaniyat, axborotlar o'zlashtira borish, jamiyat hodisalari haqida chuqur bilim berish va o'rgatishdan iborat. "XX asrda Yevrosiyoda siyosiy jarayonlar: tarixi va zamonaviy tendensiyalar" fanining puxta va yanada rivojlanib borishida uning boshqa fanlar bilan aloqasi muhim hisoblanib, o'quv yilininig 1-semestrda o'qitiladi.

"XX asrda Yevrosiyoda siyosiy jarayonlar: tarixi va zamonaviy tendensiyalar" deb nomlangan mazkur o'quv qo'llanma esa ***70220301 – Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha)*** mutaxassisligi 1-bosqichida tahsil olayotgan magistrlarning shu nomdagi o'quv fanini samarali o'zlashtirishlari uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanmasi 2 qismdan iborat bo'lishi rejalashtirilmoqda. Hukmingizga taqdim etilayotgan ushbu 1-

qismda 1917-1953 yillar xronologik chegarada fikr-mulohazalar yuritiladi. Bunda Rossiyada oktyabr to'ntarishining tarixiy zamini; oktyabr to'ntarilishi va uning oqibatlari; fuqarolar urushi va qizil armiyaga qarshi qurolli harakatlar; totalitar tuzumning yangi iqtisodiy siyosat davri; Stalin diktaturasi: jamiyat va terror kabi mavzularni o'rganish nazarda tutiladi.

1917-1930 yillarda Turkiston mintaqasida chop etilgan davriy matbuot organlari sahifalaridagi qo'shimcha boy ma'lumotlar muallif tomonidan ilk bor ilmiy muomalaga kiritilmoqda. Jumladan, 1920-1930 yillarda Buxoroda nashr yuzini ko'rgan "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalari[2]da Rossiyaning Birinchi jahon urushidan keyingi yillarda olib borgan ichki va tashqi siyosati hamda iqtisodiy- madaniy ahvoliga oid ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan.

Ma'ruza jarayonida hamda mavzuni mustahkamlash bosqichida o'quv qo'llanma matniga kiritilayotgan qo'shimcha manbalar, ilovalar, bibliografiyalar bilan magistrlarni tanishtirish ham nazarda tutilgan. Birinchidan, 1920 yillarning boshlarida Rossiya ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid bir qator manbalar keltirilishi mumkin. "Buxoro axbori" gazetasining 1920-23 yillardagi sonlarida "Sho'rolar ittifoqida", "Sho'rolar Rusiyasida", "Rusiya va Buxoro", "Rusiya va boshqalar", "Iqtisodiy ishlarimiz" kabi ruknlar ostida 100 dan ortiq maqola va xabarlar bosilgan. Ikkinchidan, Buxoro mahalliy matbuoti sahifalarida "Xorijiy ellarda", "Chet el xabarlari", "Fan-texnika yangiliklari" kabi ruknlar mavjud. O'rganilayotgan mavzularga oid, ya'ni Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarga doir ma'lumotlar magistr hamda tarix faniga qiziquvchilar uchun ahamiyatli hisoblanadi.

"XX asrda Yevrosiyoda siyosiy jarayonlar: tarixi va zamonaviy tendensiyalar" fani bo'yicha dars mashg'ulotining yangi mavzuni mustahkamlash qismi uchun bir necha interfaol usullar taqdim etiladi.

## 1-mavzu: Rossiyada oktyabr to'ntarishining tarixiy zamini

---

[2] "Бухоро ахбори" газетаси БХСР Марказий Ижроия Қўмитаси матбуот органи бўлиб, 1920 йил 9 сентябрдан 1923 йил октябргача чоп этилган. Газета ўзбек тилида, ислоҳ қилинган араб имлосида, сарғиш рангли ўртача сифатдаги қоғозда, ҳафтада 1-2 марта, 1500-2000 нусхада чиқарилган. 1923 йил 16 октябрдан "Озод Бухоро"номида газета нашр қилина бошланган. Бу газета 1930 йил октябр ойигача чиқиб турган.

Газеталарнинг тўлиқ тахламлари бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат архиви (Ўзбекистон МДА) ва Абу Али Ибн Сино номидаги Бухоро вилояти марказий кутубхонасида сакланмокда.

# Mundarija

Kirish ....................................................................................3
1-mavzu: Rossiyada oktyabr to'ntarishining tarixiy zamini.....6
1.1. Rossiya hududida yuz bergan tarixiy jarayonlarning tavsifi (IX-XIX asr boshlari)..........................................................6
1.2. Rossiya imperiyasi tarixiy rivojlanishining asosiy xususiyatlari...........................................................................10
2-mavzu: Rossiyada oktyabr to'ntarishi ..............................22
2.1. 1917 yil fevral inqilobi, ikki hokimiyatchilik, oktyabr to'ntarilishi va uning oqibatlari ......................................22
2.2. Bolshevizmning davlat tuzumiga aylanishi.....................25
3-mavzu: Fuqarolar urushi va qizil armiyaga qarshi qurolli harakatlar........................................................................37
3.1. Fuqarolar urushi va uning asosiy sabablari....................37
3.2. Sovet hukumatining chekka o'lkalarga nisbatan siyosati va Turkiston mintaqasida qizil armiyaga qarshi qurolli harakatlar....42
4-mavzu: Totalitar tuzumning yangi iqtisodiy siyosat davri....63
4.1. Yangi iqtisodiy siyosatning mohiyati va uning natijalari. SSSRning tashkil topishi..................................................63
4.2. Sovet jamiyatidagi ocharchilik va uning oqibatlari..........66
5-mavzu: Stalin diktaturasi: jamiyat va terror......................96
5.1. Mamlakatni industrlashtirish, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish va madaniy inqilob................................96
5.2. Ikkinchi jahon urushidan keyingi vaziyat va Stalinning oxirgi yillarida jamiyat.....................................................102
Glossariy..........................................................................109
Testlar ............................................................................111

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Kamol RAHMONOV

# XX ASRDA YEVROSIYODA SIYOSIY JARAYONLAR: TARIXI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

O'QUV QO'LLANMA

" FAN ZIYOSI " nashriyoti
Litsenziya AI № 178, 17 noyabr 2023 yil
17 noyabr 2023 yilga bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x90, TIMES TAD garniturasi,
8-shartli bosma taboq. soni 100 nusxa.
Duna poligraf bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Buxoro shahar Mustaqillik ko`chasi 28 uy
E-mail: ya.duna2012@yandex.ru duna_poligraf@bk.ru

KBK 63.3(5Ўзб)7 R-18
UO'S: 531.535.521.61
ISBN 978-9910-742-88-0



Kamol Rahmonov – buxorolik tarixchi olim. 1976 yil 17 noyabrda Buxoro viloyati Vobkent tumani Boyqazon qishlog’ida tug’ilgan. 1994 yili Buxoro davlat universitetining Tarix fakulьtetiga o’qishga kirib, 1999 yil mazkur fakulьtetning tarixchi, tarix o’qituvchisi ixtisosligini tugatdi. Dastlabki mehnat faoliyatini Buxoro viloyati Vobkent tuman iqtidorli o’quvchilar litseyida o’qituvchilik bilan boshlagan. K.Rahmonov 2006-2013 yillarda Buxoro davlat universiteti O’zbekiston tarixi kafedrasi o’qituvchisi bo’lib ishladi. 2013-2018 yillarda Tarix kafedrasi mudiri lavozimida faoliyat yuritgan. 2018 yil 20 dekabrdan hozirgacha Jahon tarixi kafedrasi dotsenti lavozimida ishlab kelmoqda.

K.Rahmonov 2009 yildan buyon tarix fanlari nomzodi. O’zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti huzuridagi tarix fanlari bo’yicha doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilishga mo’ljallangan D 0 1 5 . 1 4 . 0 1 raqamli Ixtisoslashgan kengashi yig’ilishida “ Buxoro axbori ” va “ Ozod Buxoro” gazetalari-Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixini o’rganish manbasi ” mavzuida 07 . 00. 08. - Tarixiy manbashunoslik ixtisosligi bo’yicha tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan nomzodlik dissertatsiyasini 2009 yil 12 iyunь kuni muvaffaqqiyatli himoya qilgan.

Dissertatsiya himoyasi (2009 yil) dan keyin 80 ta ish e’lon qilgan, shulardan, 2 ta ilmiy monografiya, 2 ta ilmiy - ommabop risola, 2 ta o’quv qo’llanma , 2 ta metodik qo’llanma , 2 ta metodik ishlanma , 2 ta xorijiy jurnallarda , 12 ta mahalliy jurnallarda ilmiy maqola , 6 ta xalqaro konferentsiyalarda, 50 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlar to’plamlarida tezislar nashr etilgan.

O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2021 yil 30 iyundagi 302/1-sonli bayonnomasiga asosan K. Rahmonovga “Tarixshunoslik , manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari” ixtisosligi bo’yicha dotsent ilmiy unvoni berilgan.

Oilali, uch nafar farzandning otasi, ibratli oila boshlig’i.

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: V013240612

# O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universitetining 2023yil "**21**" **oktabrdagi** "**556**"-sonli buyrug'iga asosan

*K.J. Raxmonov*

*(muallifning familiyasi,ismi-sharifi)*

*70220301-Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha)*

*(ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi))*

__________ning talabalari (o'quvchilari) uchun tavsiya etilgan

*XX asrda Yevroosiyoda siyosiy jarayonlar: tarixi va zamonaviy tendensiyalar*

*(o'quv adabiyotining nomi va turi: darslik, o'quv qo'llanma)*

*nomli o'quv qo'llanma*

__________ga

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

Ro'yxatga olish raqami

**556-32**

Rektor O.Xamidov